



Muharrir asarning birinchi o'quvchisi

Shamsiddinova Hilola Ilhom qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Usmonova Ziyoda Ilhomjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada muharrirning nashriyotga keltirilgan qo'lyozmani tahlil qilish usullari yoritilgan. Muallif va muharrir orasidagi munosabatlarga aniqliklar kiritilgan.

Kalit so'zlar: Asar, muharrir, muallif, kitob, nashriyot, adabiy til, fikr, tuzatish, g'oya, shoirlar.

Annotation: This article describes in detail how an editor analyzes an article submitted for publication, why he makes changes to the work, or why he does not make changes to some works.

Key words: Work, editor, author, book, publisher, literary language, opinion, correction, idea, poets.

Аннотация: В этой статье я подробно расскажу о том как редактор анализирует цитируемую статью для публикации почему он вносит изменения в работу или почему он не вносит изменения в некоторые работы.

Ключевые слова: автор, книга, литературный язык, мысль, исправление, идея, поэт.

Bizning zamonda adabiyot bor ekan Alloh yaratgan olam, u yerda tinim bilmay u yoqdan bu yoqqa mehnat qilib, yuradigan insonlar poklanib, dunyoni anglab, hayotimiz qancha hikmatlarga boy ekanligini bilib tushunib boramiz. Axir adabiyotni ichidagi oltinga teng kitoblar bir insonni dunyoqarashini o'y-fikrlarini o'zgartirib yuboradi. Albatta yaxshi tomonga. Mana shu biz aytib o'tgan kitoblarimiz muallif tomonidan, qanchadan qancha bosqichlardan o'tgandan so'ng bizni keng fikrlashga majbur qiladigan vositaga aylanadi.

Qo'lyozmalar nashriyotda kitob holiga keladi. Muallif o'z asarini qo'lyozma sifatida nashriyotga - birinchi o'quvchisini oldiga olib boradi. Asarning birinchi o'quvchisi bu - muallifdir. Muallifdan bir asarni o'rganishda, uni xatoliklarini to'g'rakashda juda katta bilim, ko'nikma talab etiladi. Asarni, she'rni, hikoyani tuzatishda ular xuddi zargarlarday ish olib borishi zarur. Zargarlar ham o'zlari yasagan





buyumni juda ehtiyojkorlik bilan bezatadi, nojoya ketgan qismini mohirlik bilan yon atrofiga shikast yetkazmasdan to'g'rileydi. Agar qo'pol harakat qiladigan bo'lsa, boshqa joylari ham buzilib, sinib ketishi mumkin. Mualliflik ish ham xuddi shunday, balki undan ham ko'proq mas'uliyatni talab qiladigan kasbdir. Avvalambor, muallif bilimli, har bir sohani chuqur o'rgangan, mantiqan chuqur fikrlaydigan, dunyoqarashi keng inson bo'lishi zarur. Endi misol tariqasida olingan parchani tahlil qilish, unda kuzatilgan xato va kamchiliklarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Adabiy tilning o'zidagi rivojlanish qonuniyatlari bilan adabiy til normasidagi davr oshishi bilan paydo bo'lib turadigan siljishlar bilan aloqadordir".

Birinchidan bilan ko'makchisi uch marta qo'llangan, lekin bu takror qo'llash noto'gri. Bu matnda bilan ikki o'rinda ayiruv bog'lovchi vazifasini, bir o'rinda esa ko'makchi vazifasini bajaradi. Ikkinci o'rindagi "bilan" noto'g'ri qo'llash tufayli mantiqan nomutanosiblik keltirib chiqargan. Bu o'rinda muharrir jumlanı mazmunini saqlab qolgan holda ko'makchilarni ma'nodoshlari bilan almashtirishi lozim. Muharrirlardan talab etiladigan narsa shuki, muallifning fikr-g'oyasini yo'qotib yubormaslik. Muallif o'zi yaratgan g'oya saqlanib qolishi zarur. Muharrir, ayniqsa badiiy asar qo'lyozmasiga ehtiyojkorlik bilan yondashmog'i kerak. Garchi ma'noviy-semantic va uslubiy tuzilishi bo'yicha murakkabligiga ko'ra oddiy xatoliklarga yo'l qo'yishlik ehtimoli mavjud bo'lmasa-da, afsuski, ortiqcha ehtiyojkorlik tufayli ko'pincha badiiy asarlarda ular ommaviy nusxada chiqib bo'lganidan so'ng xatoliklar uchrab turadi. Qo'lyozmani nashrga muvaffaqiyatli tayyorlash, xusan, matnga tuzatishlarni kiritish muharrirlik tahlili bo'yicha tavsiyalarga binoan mazkur ishda muallifning faol ishtirokiga ko'ra amalga oshiriladi. Muallif qandaydir muammoni yoritish bo'yicha qo'shimchalar qilishi, aniqlik kiritishi anglashilmovchilikni tushuntirishi va boshqa muharrir ishida yuz bergen noaniqlikni aniqlashtirishi mumkin. Xullas, qo'lyozmaga kiritiladigan barcha tuzatishlar muallif bilan kelishib olinishi kerak.

Eng tajribali muallif ham materialga berilib ketishi, yetarlicha ilmiy obyektivlikdan chetlab ketishi mumkin. Muallif uchun o'z asarining har bir kichik detallari, unsuri juda qadrli hisoblanadi, shunga ko'ra u muharrirning biror unsur, qismidan voz kechish bo'yicha taklifni qiyinchilik bilan qabul qiladi yohud rad etadi. Ba'zan muallif va muharrir tomonidan mezonlar birdek qabul qilinsa-da, ammo mazkur mezonlarni muayyan asarga tadbiqi talqinida kelishmovchilik chiqishi mumkin: biri uchun to'g'ri, ikkinchisi uchun noto'g'ri tuyuladi.

Yuqorida aytildiganlar, bizningcha, muharrir va muallif munosabatlarining butun murakkabligini tasavvur etish uchun yetarlidir. Demak, muharrirning muallif bilan





hamkorlik qilishidagi o‘ziga xos tartib- qoidalarni ya’ni muharrir odobi (etikasi) me’yorlarini belgilash zarurati dolzarblik kasb etadi. Albatta, bu qoidalar huquqiy davlatdan fuqorolik jamiyatiga o‘tish tamoyillari, milliy mafkura va milliy qadriyatlar va yoki mentalitet asosida yaratiladi.

Muharrirlik odobi tanqid odobi bilan ancha umumiyligi jihatlarga ega. “Adabiy asarlar xususidagi fikrlar tanqidchi zimmasiga muayyan ma’naviy mas’uliyat yuklaydi, achchiqqina tegadigan halollik, dalillanganlikni talab etadi. Har qanday chanqib olish, me’yordan oshirib yuborish, asossiz qiyoslash, iqtibosini o‘z bilganicha olish, bir yoqlama (o‘z g‘oyasi, nuqtayi nazari, saviyasi doirasida) yondashish, yorliq osish, quruq so‘zdan iborat da’vo - adabiy asar tub mohiyatiga mutlaqo munosib emas”

Lekin, oldida to’la yakunlangan, o’quvchi hukmiga havola qilingan asar turgan tanqidchidan farqli o’laroq muharrir kitobning yaratilishi jaroyonida bevosita ishtirok etadi, bu jaroyonga faol ta’sir ko’rsatadi.

Shunga ko’ra bu ishda o’ta nozik did, xushmuomalalik va ziyraklik talab etiladi. Samimiylilik keskinlikdan, piching va dashnomidan holi bo’lishi lozim. Xolislik (to’g’rilik) albatta zarur, biroq, muallif sha’ni kamsitilmasligi, uning, umuman ijodiy imkoniyatiga shubha solmasligi kerak.

Muharrir muallifga nisbatan xayrixohlik, hurmat muhitini yuzaga kelishida albatta ishtirok etishi, tabiiy. Busiz noshirlik odobini tasavvur etish mushkul. Muallifga samimiyat nashriyotlaming tahririyatdan boshqa bo‘lmalari, hatto, hisobxona tomonidan ham ko’rsatilishi lozim.

Qo’lyozma muallifi qaysidir sabablar bilan muharrirga yoqmagan taqdirda ham, u o‘z tuyg‘ularini mutlaqo oshkor etmasligi kerak, bunga haqi ham yo’q. Muharrirlik odobiga qo’yiladigan yana bir talab, u kayfiyatga berilmasligi shart, hatto muallifni ko’rganda unda qandaydir asabiylik uyg’onmasligi ham zarur.

Xulosa qilib aytish kerakki, muharrirlik kasbi, uyda o’tirib bir asarni yaratishdan ham qiyinroq. Men bu gapim bilan mualliflik oson demoqchi emasman. Sababi ikki kasb egalarining birgalikda, hamjihatlikda bajargan ishi bir insonni, nafaqat bir insonni balki, butun xalqni ma’naviyatini o’stiradi, dunyoga qarash ko’lamini kengaytiradi. Bular yaratgan ijodiy ishning bir satrini o’qigan inson, o‘ziga olam-olam ma’no oladi. Agar ikkisining ham fikri bir joydan chiqmasa biz insonlarni kitobga bo’lgan qiziqishimiz so’nib, qo’limizga kitob ushlagimiz kelmay qoladi. Shuning uchun ham men muallif hamda muharrirni, oy va yulduzlarga o’xshataman. Kechasi osmonga oy chiqmasa, yulduzlar ham chiqmaydi, yulduzlar chiqmasa oy ham chiqmaydi va biz tunning chiroyidan zavq ololmaymiz.





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.Toxirov. Adabiy tahrir. Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan oliy ta'lif muassasalari jurnalistika fakultetlari uchun darslik. "Tafakkur-Bo'stoni". Toshkent – 2012
2. Z.Toxirov. Nashr jarayoni asosiy bosqichlari. "Tafakkur- Bo'ston". Toshkent – 2015.

